

HAMROQULOVA Robiyaxon
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi talabasi
robiya127@gmail.com

SAHOBIY-ROVIYLAR FAOLIYATI

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СПОДВИЖНИКОВ

ACTIVITIES OF COMPANIONS

Annotatsiya: Mazkur maqola eng ko'p hadis rivoyat qilgan sahobiylar hayoti va ularning hadislar tarqalishidagi o'rni haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan va mavzuga aloqador bir qancha tahlillar berilgan. Muallif maqolani yoritishda mashhur sahobilarning faoliyatini ochib beruvchi birlamchi manbalarga murojaat qilgan. Natijada, o'quvchida ishonchli va ob'ektiv ma'lumotlar shakllanishiga zamin yaratgan.

Kalit so'zlar: Qur'on, hadis, rivoyat, sahobiy, tobein, roviy, fatvo, tabaqot, zabt, farz.

Аннотация: В этой статье содержится информация о жизни Сподвижников, передавших наибольшее количество хадисов, и их роли в распространении хадисов, а также приводится ряд соответствующих анализов. При освещении статьи автор ссылался на первоисточники, раскрывающие деятельность известных сподвижников. В результате у студента формируется достоверная и объективная информация.

Ключевые слова: Коран, хадис, повествование, сподвижник, последователь, рассказчик, фетва, табакат, забт, фард.

Abstract: This article contains information about the life of the Companions (sahabis) who transmitted the largest number of hadith and their role in the dissemination of hadith, as well as a number of relevant analyzes. When covering the article, the author referred to primary sources that reveal the activities of famous associates. As a result, the student forms reliable and objective information.

Keywords: Quran, hadith, narration, sahabi, tabi'un, narrator, fatwa, tabaqat, zabt, obligation.

KIRISH

Islom dinining Qur'ondan keyingi ikkinchi manbai Nabi alayhissalomning hadislarini

hisoblanadi. Shuning uchun barcha musulmonlar hadis ilmiga alohida hurmat bilan qaraganlar hamda bu ilmni o'rganishga katta ahamiyat berganlar. Bu masalada sahobiylar boshqa ilmlar kabi peshqadam bo'lganlar va hadislarini o'rganish lozimligini to'la his qilganlar. Ular Nabi alayhissalomning so'z va amallarini, butun hayot tarzlarini o'ta sinchkovlik va e'tibor bilan, yuksak ehtimom va ishtiyoq bilan kuzatib, o'rganib borishar edi. Imkon darajasida u zotning har bir xatti-harakatlarini, so'z va tasarruflarini nazardan chetda qoldirmaslikka harakat qilishar, uzluksiz o'rganib borishga, har bir ishda ularga ergashishga intilishar edi.

ASOSIY QISM

Abu Bakr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Payg'ambar alayhissalom: "Hozir bo'lgan g'oyibga yetkazsin. Shoyad hozir bo'luvchi uni o'zidan ko'ra ko'proq anglovchiga yetkazsa", dedilar" [3:2657]. Yuqoridagi hadisda Nabi alayhissalomning o'zlari hadislarini boshqalarga yetkazishga amr qilmoqdalar va bu amrlarining sababini bayon qilmoqdalar. Bu mazmunda yana bir qancha hadislar rivoyat qilingan. Boshqa buyruqlari singari buni ham sahobiylar bajarish, u zotning suhbatlarida qatnashganlari suhbatda hozir bo'lmaganlarga yetkazish uchun bor imkoniyatlarini ishga solganlar. Sahobiylar ushbu ko'rsatmalarga u zot hayotlik chog'larida ham amal qilishgan bo'lsalar-da, u zotning vafotlaridan keyin bunga yanada ko'proq ahamiyat berdilar. Sahobiylar Payg'ambar alayhissalom vafotlaridan keyin Islom risolatini insonlarga yetkazish uchun o'z yurtlarini tashlab, turli o'lkalarga tarqaldilar hamda insonlarga Qur'oni karim va Rasullulloh alayhissalomning hadislaridan ta'lim berishdi. Quyida eng ko'p hadis rivoyat qilgan sahobiylar tartib bilan keltiriladi:

1) Abu Hurayra roziyallohu anhu eng ko'p hadis rivoyat qilgan sahobiy hisoblanadi. U kishining 5300 dan ortiq hadis rivoyat qilgani haqida qayd etilgan [4:431]. U yod olgan hadislarini va bilimlarini boshqalarga ham yetkazish bilan shug'ullangan. Bir o'rinda u kishidan 300 dan ortiq odam hadis rivoyat qilgani aytiladi. Imom Buxoriyning so'zlariga ko'ra undan 800 dan

oshiq sahobiylar va tobeinlar rivoyat qilgan va u o'z zamonining hadislarni eng yod biluvchisi edi. Undan Abdulloh ibn Umar, Abdulloh ibn Abbos, Anas ibn Molik kabi sahobiylar, Said ibn Musayyib, Urva ibn Zubayr, Sulaymon ibn Yasar, Hafs ibn Osim, Ziyod ibn Qays, Muhammad ibn Siyrin, Abdurahmon ibn Hurmuz, Abida ibn Sufyon, Ato ibn Raboh singari tobeinlar hadis rivoyat qilganlar. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadislar olti ishonchli to'plamdan o'rin egallagan. Uning o'zi bu haqida: "Rasululloh alayhissalomning ashoblari orasida mendan ko'ra ko'p hadis biladigani yo'q", degan. Ibn Umar u haqida: "Abu Hurayra mendan hayrlidir, va aytayotgan narsasini bilguvchiroqdir", deb aytgan[5:141]. Hijriy 59 (ba'zi manbalarda 57 yoki 58) yilda Madinada vafot etgan va Baqi' qabristoniga dafn etilgan.

2) Payg'ambar alayhissalomdan hadis rivoyat qilish bo'yicha Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhu ikkinchi o'rinda turadi. U kishi 2630 ta hadis rivoyat qilgan. U hadis rivoyat qilishdagi ehtiyotkorligi bilan mashhur edi va zamondoshlari u haqida: "Sahobiylardan hech biri Rasululloh alayhissalomning hadislariga ziyoda qilish yoki undan kamaytirishda Abdulloh ibn Umardan ko'ra ehtiyotkor bo'lmaganlar", deyishgan. U haj hukmlarini eng yaxshi biluvchi sahobiy edi va Madinada 60 yil fatvo bergan. Undan Said ibn Musayyib, Sobit Bunoniy, Tovus, Zuhriy, Muhammad ibn Siyrin va Mujohid kabi tobeinlarning ulug'lari hamda boshqalar hadis rivoyat qilganlar. Otasi xalifa bo'lishiga qaramasdan, umri davomida siyosatga aralashmagan, balki ilm olish, uni tarqatish va ibodat bilan shug'ullangan. Hijriy 73-yilda 83 yoshida Makkada vafot etgan.

3) Ulardan keyingi o'rinda Anas ibn Molik roziyallohu anhu 2286 ta hadis bilan turadi. Rasululloh vafotlaridan so'ng avval Damashqda, keyin Basrada yashadilar va ilmni yoyish, nabaviy hadislardan ta'lim berish bilan shug'ullandilar. Abu Hurayra roziyallohu anhu: "Anas ibn Molikdan boshqa Nabi alayhissalomning namozlariga o'xshash namoz o'qiydigan biror kishini ko'rmadim", deganlar. Bu zotdan Ibn Siyrin, Sobit al-Bunoniy, Qatoda, Hasan Basriy, ibn Shihob Zuhriy, Muhammad ibn Yahyo, Baro

ibn Zayd va boshqalar rivoyat qilgan. Anas ibn Molik roziyallohu anhunung yoshlikdan Rasululloh alayhissalomga yaqinliklari, xizmatlari, sadoqatlari va o'zlaridagi ilmga bo'lgan tashnalik va ixloslari hamda boshqa omillar u kishini ilm dengiziga aylantirgan edi. U zot uzoq umr ko'rdilar va hijriy 93-yilda 100 yoki 101 yoshlarida Basrada vafot etdilar.

4) Payg'ambar alayhissalomning rafiqalari Oisha roziyallohu anho hadis rivoyat qilishda keying o'rinda turadilar. U kishi zamonalarining ulug' donishmandlaridan bo'lib, hatto Abu Bakr, Umar, Usmon xalifalik davrlarida taniqli sahobiylar va olimlarga dars, fatvo beradigan darajada yuksak salohiyat va iqtidor sohibasi edilar. Abu Muso roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Biz Rasululloh alayhissalomning sahobiylariga qay bir hadis ishkol (muammoli) bo'lib Oishadan so'rasak, albatta, uning huzurida ilmni topar edik", dedi. Termiziy rivoyat qilgan. Shuningdek, Ibn Sa'd o'zining tabaqot janrida yozilgan "Tabaqotul kubro" asarida tobeinlardan Masruq ibn Ajda'ning u haqida: "Muhammad alayhissalomning ashoblarining olimlarini undan farzlar haqida so'rayotganlarini ko'rdim", - degan so'zini keltiradi. Urva ibn Zubayr u zotdan ko'ra Qu'ronni va farzlarni, halol va haromni, arablarning she'rlari va qissalarini, hamda nasablarni biluvchi yo'q degan. Jami rivoyatlari soni 2210ta. Undan sahobiylarning bir guruhi rivoyat qilgan. Jumladan Umar, Abdulloh ibn Umar, Abdulloh ibn Abbos, Abu Hurayra va boshqalar[5:156]. Shuningdek, ko'plab tobeinlar, Urva ibn Zubayr, Alqama ibn Qays, Ikrima, Mujohid, Masruq ibn Ajda', Asvad ibn Yazid, Mutorrif ibn Abdulloh, Ibn Siyrin, Tovus, Said ibn Musayyib, Abu Burda singari, ham undan rivoyat qilganlar.

5) U zot muxtaramadan keyin Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhu turadi va u zot 1660 ta hadis rivoyat qilganlar[5:148]. Ummatning olimi hisoblanganlar va Rasululloh alayhissalom vafotlaridan keyin hadislarni o'rganishga jiddiy kirishganlar. Kimda bir hadis borligini eshitsalar, albatta uning oldiga borar edilar. Ilm olish borasida Ibn Abbos kibr qilmadilar. Kimda ilm bo'lsa, uning yoshi katta bo'ladimi yoki kichik bo'ladimi, yoki bo'lmasa hur bo'ladimi, yoki qul bo'ladimi – buni

farqi yo‘q, o‘shandan borib ilm o‘rganar edi. Ibn Abbos Nabiy alayhissalom vafotlaridan keyin hadislarni yig‘ishga kirishdilar. Ibn Umar undan so‘ragan kishiga: “Ibn Abbosdan so‘ra, albatta u Alloh Muhammad alayhissalomga nozil qilgan narsadan qolganini bilguvchiroqdir”, degan. Abdulloh ibn Mas‘ud roziyallohu anhu: “Agar ibn Abbos biz topgan narsani topganida edi (ya‘ni Nabiy alayhissalom bilan ko‘p yillar mobaynida birga bo‘lish sharafiga erishganda edi) birortamiz unga yaqinlasha olmasdik”, dedilar[4:146]. Ibn Abbos roziyallohu anhu garchi u davrda mazkur nom berilmagan bo‘lsada jarh va ta‘dil ilmlari bilan ham shug‘ullangan. Said ibn Jabirdan qilingan rivoyatda uning Ibn Abbosga Navf Bakkaliydan bir hadis aytganida, ibn Abbos unga Ubay ibn Ka‘bdan rivoyat qilingan hadisning sahih matnini keltiradi va roviyni “Allohning dushmani” deya ta‘kidlab uning yolg‘on gapirganini bildirgani aytiladi. Shu tariqa Ibn Abbos boshqalarning zabtini tekshirar edi, rivoyatlaridagi shozz holatlarni, xabarlaridagi xatolarni bayon qilar edi va boshqalarni ogohlantirar edi.

XULOSA

Sahobiylar Payg‘ambar alayhissalomning o‘zlari tarbiyalagan o‘quvchilari edilar va islom da‘vatini u zot vafotidan keyin boshqa insonlarga yetkazdilar. Ulardan bir guruhi insonlarga ta‘lim berish va hadis aytishda boshqalaridan o‘zib ketdilar. Yuqorida nomlari zikr qilingan zotlar Nabiy alayhissalomga yaqinliklari va u zot bilan ko‘p vaqt birga bo‘lganliklari sababidan hadislarni boshqa safdoshlaridan ko‘ra yaxshiroq o‘zlashtirdilar. Shuningdek, barchalari hadislarga muhabbatli edilar va ularni o‘rganishda tirishqoqlik ko‘rsatdilar. Ularning hadislarni ko‘plab rivoyat qilishiga sabab bo‘lgan omillardan yana biri – bu ularning umrlarining asosiy qismida siyosat bilan shug‘ullanmaganliklaridir. E‘tiborlarini odamlarga ta‘lim berishga qaratdilar va bu yo‘lda qattiq harakat qildilar. Shu va boshqa bir qator omillar ularni eng ko‘p hadis rivoyat qilgan sahobiylar sifatida nom qozonishlarida asosiy o‘rinni egalladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Siyarul-alam van-nubala. 1374.– 570 b.
2. Muhammad Yusuf Kandehlavi. Hayatus Sahaba. – Bayrut: Muassasatul risalati, 1965. – 513 b.
3. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – Bayrut: Daru ibn Kasir, 2002. - 1944b.
4. Hofiz Ibn Hajar Asqaloniy. Al-isobatu fi tamyizis sohabati. Bayrut: Darul kutubul ilmiy, 1995. – 750 b.
5. Abdulmahdiy ibn Abdulqodir ibn Abdulhadiy. Ilmu jarh va ta‘dil qovaidihi va aimmatihi. – Qohira: Maktabatul iyma, 2011. – 260 b.
6. Mahmud Tahhon. Taysir mustalah al-hadis. – Ar-Riyod: Maktabatul maorif, 2010. – 296 b.
7. <https://www.Islamicfinder.com>